

VOYAGA YETMAGANLARGA JAZO TAYINLASH YOXUD JINOYAT QONUNCHILIGIDA LIBERALIZMNING NAMOYON BO'LIHI

Xursanov Shamsiddin Allamurod o'g'li

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti 4-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: *Jamiyat rivojlanishining muhim omillaridan biri bu sodir etilgan xatolardan munosib xulosa chiqara bilishdir. Lekin, bu kabi xulosalarni chiqarishda ruhan tushkunlikka tushgan, hayot darvozasidan endigina kirgan bolalar qandaydir ko'mak istashadi. Bu ko'mak har qanday yo'llar bilan psixologik, moddiy yoki qonun yo'li bilan berilishi mumkin. Ushbu maqolada qonunchilikda ya'ni, asosan jinoyat qonunchilik sohasida voyaga yetmaganlarga sog'lom hayotlariga qaytish uchun ko'maklashuvchi normalar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *voyaga yetmaganlar, aybsizlik prezumpsiyasi, konvensiya, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari.*

KIRISH

Dunyoda barcha tirik mavjudot yashar ekan, o'zidan albatta biror xotira yoki iz qoldiradi. Yoki bo'lmasa, uning harakatlarini davom ettiruvchi avlodi bo'ladi. Xususan insonlarda ham. Bu ham bo'lsa yoshlardir. Ayni aholining shu qatlami bugungi kunda eng ko'p e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan shaxslar desak mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, bugungi kunda biz erishayotgan yutuqlar, biz yaratayotgan narsalarning hammasi kelajak avlod uchundir. Kelajak dunyo uchun biz har tomonlama yetuk yoshlarni shakllantirishimiz kerak. Bu albatta oson ish emas.

Ba'zi hollarda, yoshlar orasida huquqga xilof harakatlari orqali o'zining hayotini izdan chiqarib yuborganlarining ham guvohi bo'lamiz. Bunday paytda ularni o'z xatolardan xulosa chiqarib, bu kabi xatolarni qayta takrorlamaslikka undash kerak bo'ladi. Lekin, asosiy muammo ayni shu paytda yuzaga keladi. Ya'ni, ularni qaysi yo'llar orqali undash kerak? Jinoyat sodir qilgan yoshlarning ko'pida xar hil ruhiy zarbalarning asorati qoladi va ular hayotlarini davom ettirish uchun o'zlarida kuch topa olishmydi. Bu holat esa ularni takror jinoyat sodir qilishga undaydi. Shu sababli sodir qilgan jinoyati uchun tayinlangan jazo tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Shu o'rinda jinoyat qonunchiligi bu kabi masalalarni hal etishda bevosita maydonga chiqadi.

Avvalo yoshlarni tarbiyalash ularning oilasidan boshlanadi. Lekin, jinoyat qonunchiligida asosan tarbiyasi yomonlashgan, sodir etilgan jinoyati tufayli ruhiy zarbaga duj kelgan yoshlar bilan ishlashni taqazo etadi. Ularning tarbiyasini tiklashga takror huquqga xilof harakatlar sodir etmaslikka ko'maklashish ushbu qonunchilik sohasining o'ziga xos jihati hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, voyaga yetmaganlarga ko'maklashish xalqaro miqyosda ham qo'llanilib keladigan vositadir. Masalan, Bola

huquqlari to'g'irisidagi Konvensiyada " Bola, u jismoniy va aqliy jihatdan kamolatga yetmaganligi tufayli, maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka, binobarin, tug'ilguncha va tug'ilgandan keyin ham munosib darajada huquqiy himoyaga muhtoj" deya qayd etiladi⁴⁵.

ASOSIY QISM

Bola huquqlarini hurmat qilish garchi ular qonun doirasida chiqib ketib harakat sodir qilsa ham juda muhim ahamiyatga ega. Negaki, ularga xatolarini to'g'irlashga imkoniyat berilishi kerakligi butun jamiyatimizning yuksalishiga olib keladi. Qolaversa, bu prinsip butun dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan. Ya'ni, Birlashgan Millatlar Tashkilotining (bundan keyin matnda BMT) "Bola huquqlari to'g'irisida" konvensiyasining 37-moddasida: Birorta bola

- ❖ qiynoqlarga solinishiga
- ❖ shavfqatsiz yoki g'ayriqonuniy munosabatda bo'lishiga
- ❖ umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga
- ❖ o'lim jazosiga

hukm etillmasligi kerak deya qayd etiladi⁴⁶. Lekin, voyaga yetmaganlar tomonidan og'ir jinoyat sodir etilgan taqdirda ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlansa uning muddatini katta yoshdagilarga tayinlanadigan jazo muddatidan kamroq bo'lishi zarur. Ular jazoni ijro etish muassasalarida katta yoshdagi shaxslardan ajratib saqlanishi va zarur hollarda oila a'zolari bilan ko'rishib turishi yoki xat yozishib turish huquqlari berilishi ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari ushbu konvensiyaning 39-40-moddalarida jazoni ijro etish muassasalari ularning sog'ligiga zarar yetkazmasligi, ularning shaxsiy hayotini hurmat qilishligi, agar ularda ruhiy zarbaning oqibatlarini saqlanib qolgan bo'lsa, ularni sog'lom hayotga qaytish uchun ko'maklashish kerakligi, ularning aybi tasdiqlanmaguncha aybsizlik prezumpsiyasiga amal qilishligi, jinoiy javobgarlikka tortishning eng kichik yoshini belgilanishi kabi bir nechta zaruriy me'yorlarga to'xtab o'tganligining guvohi bo'lamiz.

Lekin shuni alohida qayd etish kerakki, bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro miqyosdagi kelishuvlar faqatgina bu emas. Xususan, BMT bu mavzuga aloqador bir nechta hujjatlar qabul qilgan. Nafaqat hujjat, balki BMT tarkibida hamda 190dan ortiq davlatda bola huquqlarini himoya qiladiga YUNICEF tashkiloti ham mavjud⁴⁷.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 45-moddasida ham voyaga yetmaganlarning huquqlar davlat himoyasida ekanligi qayd etiladi⁴⁸. Bu esa davlatimizda voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini davlat darajasida himoy qilinishini anglatadi.

⁴⁵ Muxamedov O'. X. Huquqshunoslik asoslari: darslik/ - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – 297b.

⁴⁶ Muminov A. R., Tillabayeva M.A. Bola huquqlari: Darslik / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T. : "Adolat" nashriyoti, 2014. – 422-423-424b.

⁴⁷ <https://www.unicef.org/about-unicef>

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. "O'zbekiston" . 2019. 17b.

Shu o'rinda bevosita jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar uchun qonunchilik tizimida qanday yengilliklar borligi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu mavzuga ya'ni, voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashga aloqador normalar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 81-86-moddalarida o'z aksini topgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 81-moddasida voyaga yetmaganlar uchun faqatgina shu moddada ko'rsatilgan jazolar tayinlanishi mumkinligi qayd etiladi. Ya'ni, besh xil jazo ;

➤ jarima (Bazaviy hisoblash miqdori(BHM)ning 2 baravaridan 20 baravarigacha faqatgina o'z shaxsiy mulki bor bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarga)

➤ majburiy jamoat ishlari (60 soatdan 240 soatgacha, taqqoslash uchun: voyaga yetgan shaxslarga esa 120 soatdan 480 soatgacha),

➤ axloq tuzatish ishlari(1 oydan 1 yilgacha, voyaga yetganlarga esa 6 oydan 3 yilgacha)

➤ ozodlikni cheklash (6 oydan 2 yilgacha)

➤ ozodlikdan mahrum qilish (6 oydn 10 yilgacha lekin jinoyatni og'irlashtiruvchi holatlar yoki jinoytlar majmui bo'lsa ushbu muddatlar o'zgarishi mumkin)

tayinlanishi mumkinligi qayd etiladi⁴⁹. Demak, yuqorida berilgan jazo turlari va ularning miqdorlari voyaga yetganlarga tayinlanadigan jazo turlari va miqdorlaridan anchagina farq qiladi. Bundan shuni anglash mumkinki, qonunchilik tizimimizda ham jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan yengilliklar berilishining joriy etilishi huquq tizimining liberalligi va demokratlashganligidan dalolat beradi.

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jarima tayinlashning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 82-moddasida aks ettirilgan. Xususan, bu jazo yuqorida ta'kidlanganidek, o'z shaxsiy mulki yoki daromadi mavjud bo'lgan yoshlarga nisbatan BHMning 2 baravaridan 20 baravarigacha belgilanadi. Ammo, mahkum ushbu talabni 6 oy mobaynida bajarmasa, jazoni qonunga muvofiq tarzda o'zgartirilishiga sabab bo'ladi. Masalan,

➤ BHMning 1 baravari majburiy jamoat ishlarining 2 soatiga

➤ BHMning 2 baravari axloq tuzatish ishlarining 1 oyiga

tenglashtirilgan holda almashtirilishiga olib keladi.

Majburiy jaomat ishlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 82¹ – moddasida belgilangan. Unga ko'ra bu jazo tayinlanyotganda ba'zi jihatlarni inobatga olish zarur. Bularga:

✓ voyaga yetmagan shaxslarning mehnatga layoqatligi

✓ bu jazo yoshlarning sog'ligi va ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi

✓ ularning o'qish jarayonini buzmasligi kerak

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: “Adolat”, 2021y. – 57-61b.

agarda voyaga yetmagan shaxs bu jazoni o'tashdan bo'yin tovlasa, majburiy jamoat ishlarining har 4 soati ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga tenglashtirgan holda almashtiradi.

Axloq tuzatish ishlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 83- moddasida qayd etilgan. Ushbu jazo ham mehnatga layoqatli voyaga yetmagan shaxsga nisbatan tayinlanadi. Agar bu shaxs ishlasa o'sha ish joyida bu jazoni o'taydi. Lekin, ishlamasa bu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o'zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o'tash belgilanadi.

Ozodlikni cheklash jazosi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 84¹ – moddasida mustahkamlangan. Ozodlikni cheklash deganda mahkum yashash uyidan ma'lum vaqtlarda yoki umuman chiqmaslik, muayan joylarga bormaslik, muayyan narsalarga ega bo'lmaslik yoki saqlamaslik, ommaviy va boshqa tadbirlarda ishtirok etmaslik kabi cheklovlar qo'yilishini tushinish mumkin.⁵⁰

Ozodlikdan mahrum qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 85- moddasida mustahkamlangan. Unga ko'ra, ozodlikdan mahrum qilish jazosi faqatgina qasddan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar nisbatan tayinlanadi. Lekin, ba'zi farqli jihatlari ham mavjud ya'ni ;

❖ 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lganlarga

og'ir jinoyati uchun 6 yilgacha

o'ta og'ir jinoyati uchun 10 yilgacha

❖ 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlarga ;

og'ir jinoyati uchun 7 yilgacha

o'ta og'ir jinoyati uchun 10 yilgacha muddatga tayinlanadi

Ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan voyaga yetmagan shaxslar jazoni tarbiya koloniyalarda o'tashi belgilanadi. Shu o'rinda tarbiya koloniyalarida voyaga yetmaganlar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ijobiy xarakterga ega deb baholangan yoshlar bu yerdan yengilashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkaziladi. Shuningdek, yil mobaynida

➤ 24 marta qisqa muddatli va 8 marta uzoq muddatli uchrashuv,

➤ 24 marta telefon orqali so'zlashuv,

➤ 12 ta posilka yoki yo'qlov olish

➤ ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan cheklanmagan miqdorda uchrashuv,

➤ muassasa tashqarisida bo'ladigan madaniy tomosha va sport bilan shug'ullanish,

➤ ota-onasi yoki yaqin qarindoshlari kuztuvida 8 soatlik erkinlikka chiqarish belgilangan⁵¹.

⁵⁰ Mualliflar jamoasi. Jinoyat huquqi. Darslik. Toshkent. 2020. 245b.

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T. : “Adolat”, 2021y. – 124-125-126-moddalar. 77-78 b.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 86-moddasida jazo tayinlash mustahkamlangan. Unga ko'ra;

- 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lganlarga jinoyatlar majmui bo'yicha jazo tayinlash kerak bo'lsa eng ko'p miqdor 10 yil. Lekin, jinoyatlar majmuida bittasi o'ta og'ir bo'lsa 12 yilga tayinlanadi.

- 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlarga jinoyatlar majmui bo'yicha jazo 12 yilgacha ammo, bitta jinoyat o'ta og'ir bo'lsa 15 yilgacha jazo tayinlanadi.

Voyaga yetmaganlarga ozodlikdan mahrum qilishning maksimal chegarasi 15 yildan ortiq bo'lishi mumkin emas. Bundan tashqari, 18 yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'shimcha jazo tayinlanishi mumkin emas⁵²

Voyaga yetmagan shaxslar respublikamiz aholisining ko'p qismini tashkil etganligi va har tomonlama vatan taraqqiyoti va dunyo kelajagi yoshlarga bog'liqligi va yana ko'plab sabablarni hisobga olgan holda bu qonunchilik sohasi hozirgi kungacha liberallashtirib bormoqda. Xususan, 2021-yil 7-dekabrda qabul qilingan "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'irisida"gi qonunida jinoiy javobgarlikka tortish yoshini 13 yoshdan 14 yoshga o'zgartirish belgilangan⁵³. Bundan tashqari voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyat qilganlarga esa jazo choralari og'irlashtiruvchi qo'shimchalar ham kiritilgan. Masalan, Jinoyat kodeksining 129-moddasi 1-qismida (o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish) ozodlikdan mahrum qilish jazosi 1 yildan 2 yilgacha ko'paytirildi⁵⁴. Ushbu o'zgartirishlarni deputat Rasul Kusherbayev ta'biri bilan aytganda, "Insonparvarlik yo'lidagi yana bir qadam bo'ldi"⁵⁵ deyish mumkin. Haqiqatdan ham, bu kabi demokratik o'zgarishlar inson huquq va erkinliklarini kafolatlash va himoya qilishga qaratilgan harakatlari natijasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yana bir e'tiborga olinishi kerak bo'lgan va shu qonunning qabul qilinishi bilan bog'liq ma'lumot ya'ni, bu qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tomonidan bir o'qishdayoq qabul qilinganligi qayd etiladi⁵⁶.

Bunday o'zgartirish uchun qonun ijodkorlari tomonidan ham milliy ham xorijiy tajribalarni o'rganib, universal qonun qabul qilish talab etiladi. Ya'ni, ushbu qonunchilikda ham xorijiy tajribalar o'rganilib chiqilgan bo'lib, xususan, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Yaponiya va ko'plab Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tashkilotiga a'zo

⁵² X. Mamatov. Huquqshunoslik. O'quv qo'llanma – Toshkent.: - "Adolat", 2016y. 320 b.

⁵³ O'RQ-735-сон 07.12.2021. Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'irisida.

<https://lex.uz/docs/-5764516>

⁵⁴ <https://oz.sputniknews-uz.com/amp/20211209/ozbekistonda-jinoiy-javobgarlikka-tortishning-eng-kichik-yoshi-ozgartirildi-21718382.html>

⁵⁵ <https://www.gazeta.uz/oz/2021/10/13/criminal-liability/>

⁵⁶ <https://xs.uz/uz/post/voyaga-etmaganlarni-zhinoij-zhavobgarlikka-tortish-yoshini-13-yoshdan-14-yoshga-kotarish-nazarda-tutilmoqda-qonun-lojijasi>

davlatlarda ham jinoiy javobgarlikka tortish yoshi 14 yosh deb belgilangan⁵⁷. Lekin, Buyuk Britaniyada esa 10 yosh deb belgilangan⁵⁸.

XULOSA

Hozirgi davrda, dunyo va davlatimiz juda tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Buning sababini bugungi yoshlar kechagi yoshlardan kuchli va bilimli ekanligi bilan izohlash mumkin. Bunaqa bo'lish uchun esa, jamiyatda ular uchun yaratilayotgan sharoitlar ham sababchidir. Ya'ni, jamiyatimizda yoshlar hatto jinoyat sodir qilib qo'ysa ham ularga hayotlarida davom etishi uchun ko'maklashuvchi qonunchilik tizimi mavjud. Avvalo, jinoyat sodir etilishining oldini olish kerak, agar , jinoyat sodir etilsa uning takror sodir etilishining oldini olish kerak bo'ladi. Jinoyat qonunchiligi ham ayni shu maqsadlarni ko'zlab voyaga yetmaganlarga munosabatda bo'ladi. Yoshlar orasida jinoyatchilik ko'rsatkichini kamaytirish kelajak dunyo uchun kafolatlagan qadamlarning biridir albatta. Sababi, huquqbuzarliklar kam bo'lsa ayniqsa yoshlar orasida, xalqimiz tinch va davlatimiz rivojlanishda bardavom qadam tashlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.1.Asosiy adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. "O'zbekiston" . 2019. 80b

2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Rasmiy nashr – O'zbekistn Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: "Adolat", 2021y 582b.

3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T. : "Adolat", 2021y. –

4. Muxamedov O'. X. Huquqshunoslik asoslari: darslik/ - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020 440 b.

5. Muminov A. R., Tillabayeva M.A. Bola huquqlari: Darslik / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T. : "Adolat" nashriyoti, 2014. – 552b.

6. Mualliflar jamoasi. Jinoyat huquqi. Darslik. Toshkent. 2020. 320b.

7. X. Mamatov. Huquqshunoslik. O'quv qo'llanma – Toshkent.: - "Adolat", 2016y. 352

ELEKTRON TA'LIM MANBALARI:

1. <https://www.unicef.org/about-unicef>

2. <https://lex.uz/docs/-5764516>

3. <https://oz.sputniknews-uz.com/amp/20211209/ozbekistonda-jinoiy-javobgarlikka-tortishning-eng-kichik-yoshi-ozgartirildi-21718382.html>

4. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/10/13/criminal-liability/>

5. <https://xs.uz/uz/post/voyaga-etmaganlarni-zhinoij-zhavobgarlikka-tortish-yoshini-13-yoshdan-14-yoshga-kotarish-nazarda-tutilmoqda-qonun-lojihasi>

6. <https://archive.crin.org/en/home/ages.html>

7. <https://www.gov.uk/age-of-criminal-responsibility>

⁵⁷ <https://archive.crin.org/en/home/ages.html>

⁵⁸ <https://www.gov.uk/age-of-criminal-responsibility>